Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
To'rtko'l fakulteti assistent-o'qituvchi
Email: muzaffarumarov1988@gmail.com
ORCID 0009-0001-5531-3974



Otamurodov Rasulbek Batirovich

Tashkent davlat iqtisodiyot universiteti,
To'rtko'l fakulteti, o'qituvchi
E-mail: rasulbekbatirovich77@gmail.com
ORCID: 0009-0004-4601-507X
Telefon raqami: +998999425570



Xaitbayev Jasurbek Otaxanovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
To'rtko'l fakulteti assistent-o'qituvchi
Email: xaitbayevjasurbek84@gmail.com
ORCID: 0009-0007-5804-3336



Atadjanov Kadambay Sapayevich

Tashkent davlat iqtisodiyot universiteti
To'rtko'l fakulteti, assistent-o'qituvchi
E-mail: atadjanovkadambay@gmail.com
ORCID: 0009-0006-9874-1932



Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada yashil iqtisodiyot sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda davlatning tutgan o'rnini va vazifalari tizimli tahlil etilgan. So'nggi yillarda ekologik barqarorlik masalasi global kun tartibiga chiqib, iqtisodiy faoliyatni atrof-muhitga nisbatan mas'uliyatli asosda yuritish zarurati kuchaymoqda. Bu jarayonda yashil iqtisodiyot kontsepsiyasi barqaror taraqqiyotga erishish vositasi sifatida tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari ushbu iqtisodiy modelning muhim ishtirokchilariga aylanishi mumkin, chunki ular moslashuvchanligi, innovatsiyalarga ochiqligi va yangi texnologiyalarni tez o'zlashtirish qobiliyati bilan ajralib turadi.

Tadqiqotda davlatning mazkur yo'nalishdagi funksiyalari – normativ-huquqiy bazani shakllantirish, moliyaviy rag'batlantirish choralarini ishlab chiqish, ekologik innovatsiyalarni joriy etishga ko'maklashish va muvofiqlashtiruvchi institutlar faoliyatini yo'lga qo'yish kabi jihatlar alohida ko'rib chiqilgan. Analitik, taqqoslov va empirik metodlar asosida O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan strategiyalar, qonunchilik hujjatlari va amaliy tajribalar asosida chuqur tahlil o'tkazilgan. Maqolada, shuningdek, xalqaro tajribalar bilan solishtiruv orqali O'zbekiston sharoitida mavjud imkoniyatlar va mavjud to'siqlar aniqlangan.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kichik biznes subyektlarini yashil iqtisodiyot yo'nalishida faol ishtirok ettirish uchun davlat tomonidan yaratilayotgan sharoitlar muhim ahamiyatga ega bo'lsa-da, hali bu sohada tizimli muvofiqlashtirish, ekologik savodxonlikni oshirish va moliyaviy vositalardan samarali foydalanish bo'yicha bir qator muammolar mavjud. Shu bois maqolada mavjud tizimni takomillashtirish, amaliy natijadorlikni oshirish va davlat-xususiy sheriklikni kuchaytirishga oid ilmiy-amaliy tavsiyalar ham ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, davlat siyosati, ekologik innovatsiyalar, ekologik toza texnologiyalar, moliyaviy rag'batlantirish, yashil texnologiyalar, ekologik xavfsizlik, iqtisodiy islohotlar, davlat-xususiy sheriklik, normativ-huquqiy baza, ekologik ta'lim, innovatsion tadbirkorlik, yashil moliyalashtirish, resurs tejovchi texnologiyalar, ekologik transformatsiya, yashil energetika, ekologik mas'uliyat, ekologik sertifikatlash, ekologik infratuzilma, texnologik modernizatsiya, iqtisodiy barqarorlik, atrof-muhitni muhofaza qilish, O'zbekistonda yashil iqtisodiyot, iqtisodiy diversifikatsiya, ekologik tadbirkorlik, ekologik standartlar.

Abstract: This scientific article systematically analyzes the role and tasks of the state in the development of small business and private entrepreneurship in the context of a green economy. In recent years, the issue of environmental sustainability has become a global agenda item, and the need to conduct economic activity responsibly towards the environment is increasing. In this process, the concept of a green economy is becoming increasingly relevant as a means of achieving sustainable development. In particular, small businesses and private entrepreneurship can become important participants in this economic model, as they are distinguished by flexibility, openness to innovation, and the ability to quickly master new technologies.

The study separately examines such aspects of the state's functions in this area as the formation of a regulatory framework, the development of financial incentives, the promotion of the introduction of environmental innovations, and the establishment of coordinating institutions. Based on analytical, comparative, and empirical methods, a deep analysis was conducted based on the adopted strategies, legislative acts, and practical experience of the Republic of Uzbekistan. The article also identifies existing opportunities and obstacles in the conditions of Uzbekistan by comparing them with international experience.

The research results show that, although the conditions created by the state for the active participation of small businesses in the green economy are of great importance, there are still a number of problems in this area regarding systematic coordination, increasing environmental literacy, and the effective use of financial instruments. Therefore, the article also puts forward scientific and practical recommendations for improving the existing system, increasing practical effectiveness, and strengthening public-private partnerships.

Key words: green economy, sustainable development, small business, private entrepreneurship, state policy, environmental innovations, environmentally friendly technologies, financial incentives, green technologies, environmental safety, economic reforms, public-private partnership, regulatory framework, environmental education, innovative entrepreneurship, green financing, resource-saving technologies, environmental transformation, green energy, environmental responsibility, environmental certification, environmental infrastructure, technological modernization, economic stability, environmental protection, green economy in Uzbekistan, economic diversification, environmental entrepreneurship, environmental standards.

Аннотация: В данной научной статье систематически проанализированы роль и задачи государства в развитии малого бизнеса и частного предпринимательства в условиях зеленой экономики. В последние годы вопрос экологической устойчивости выходит на глобальную повестку дня, и возрастает необходимость ведения экономической деятельности на ответственной основе по отношению к окружающей среде. В этом процессе концепция зеленой экономики приобретает все большее значение как средство достижения устойчивого развития. В частности, субъекты малого бизнеса и частного предпринимательства могут стать важными участниками этой экономической модели, поскольку они отличаются гибкостью, открытостью к инновациям и способностью быстро осваивать новые технологии.



В исследовании отдельно рассматриваются такие аспекты, как функции государства в этом направлении - формирование нормативно-правовой базы, разработка мер финансового стимулирования, содействие внедрению экологических инноваций и создание координирующих институтов. На основе аналитических, сравнительных и эмпирических методов проведен глубокий анализ на основе принятых в Республике Узбекистан стратегий, законодательных актов и практического опыта. В статье также определены существующие возможности и препятствия в условиях Узбекистана путем сравнения с международным опытом.

Результаты исследования показывают, что, хотя условия, создаваемые государством для активного участия субъектов малого бизнеса в направлении "зеленой" экономики, имеют важное значение, все еще существует ряд проблем в этой сфере по системной координации, повышению экологической грамотности и эффективному использованию финансовых инструментов. Поэтому в статье также выдвинуты научно-практические рекомендации по совершенствованию существующей системы, повышению практической результативности и укреплению государственно-частного партнерства.

Ключевые слова: зеленая экономика, устойчивое развитие, малый бизнес, частное предпринимательство, государственная политика, экологические инновации, экологически чистые технологии, финансовое стимулирование, зеленые технологии, экологическая безопасность, экономические реформы, государственно-частное партнерство, нормативно-правовая база, экологическое образование, инновационное предпринимательство, зеленое финансирование, ресурсосберегающие технологии, экологическая трансформация, зеленая энергетика, экологическая ответственность, экологическая сертификация, экологическая инфраструктура, технологическая модернизация, экономическая стабильность, охрана окружающей среды, зеленая экономика в Узбекистане, экономическая диверсификация, экологическое предпринимательство, экологические стандарты.

KIRISH

21-asrga kelib, butun dunyo miqyosida ekologik muvozanatning buzilishi, iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarning cheklanganligi va atrof-muhitning ifloslanishi kabi global muammolar insoniyatni o'z iqtisodiy faoliyatini qayta ko'rib chiqishga majbur qilmoqda. Shu nuqtai nazardan, barqaror rivojlanish g'oyasiga asoslangan va iqtisodiy o'sish bilan bir qatorda ekologik muhofaza va ijtimoiy adolatni ham o'z ichiga olgan yashil iqtisodiyot kontseptsiyasi jahon iqtisodiyoti kun tartibiga mustahkam kirib keldi.

Yashil iqtisodiyot – bu ekologik barqarorlikni ta'minlaydigan, iqlimga salbiy ta'sirni kamaytiradigan, energiya va resurslardan tejankorlik bilan foydalanishni nazarda tutadigan iqtisodiy modeldir. Bu modelda inson farovonligini oshirish, iqtisodiy tengsizlikni kamaytirish, atrof-muhitga bo'lgan bosimni kamaytirish va tabiiy kapitalni saqlab qolish asosiy ustuvor yo'nalish sifatida qaraladi. Yashil iqtisodiyot, xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari uchun yangi imkoniyatlar va yo'nalishlar ochib bermoqda. Chunki kichik bizneslar tez moslasha olishi, innovatsion echimlarni tez joriy etishi va lokal ehtiyojlarga mos ravishda faoliyat yurita olishi bilan ajralib turadi. [1]

Ayniqsa, rivojlanayotgan davlatlar uchun yashil iqtisodiyotga integratsiya jarayoni murakkab va ko'p bosqichli hisoblanadi. Bunda davlatning roli o'ta muhim: davlat ekologik siyosatni ishlab chiqadi, normativ-huquqiy bazani yaratadi, moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini joriy etadi. Shu orqali kichik biznes vakillarini ekologik toza texnologiyalarni joriy etishga, yashil mahsulot ishlab chiqarishga va xizmat ko'rsatishga rag'batlantiradi.

O'zbekiston Respublikasi ham yashil iqtisodiyotga o'tishni milliy taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilagan. Xususan, 2030-yilgacha mo'ljallangan Barqaror rivojlanish maqsadlari, Yashil iqtisodiyot strategiyasi va boshqa qator dasturlar orqali kichik biznesni ekologik transformatsiya qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. [2]

Ushbu maqolada aynan shu nuqtai nazardan – yashil iqtisodiyot sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda davlatning roli qanday namoyon bo'lmoqda, qanday mexanizmlar samarali ishlamoqda va qaysi jihatlar takomillashuvga muhtoj – degan savollarga javob berishga harakat qilinadi. Mazkur mavzuni chuqur tahlil qilish orqali, O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda kichik tadbirkorlik subyektlari imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish maqsad qilingan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, ekologik tadbirkorlik va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash masalalariga oid ilmiy tadqiqotlar soni ortib bormoqda. Quyida ushbu yo'nalishda faoliyat yuritayotgan yetakchi mahalliy olimlar, amaliyotchilar va davlat hujjatlarining mazkur mavzuga qo'shgan hissasi tahlil qilinadi.

Professor A. Vahobovning (2021) "Yashil iqtisodiyot: nazariy asoslari va milliy model" nomli monografiyasida yashil iqtisodiyotning mohiyati, asosiy tamoyillari va O'zbekistonda joriy etish yo'llari chuqur tahlil qilinadi.



Muallif ekologik samaradorlik va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi muvozanatni ta'minlovchi mexanizmlar, xususan, kichik biznes subyektlarini bu jarayonga integratsiya qilishda davlat siyosatining muhimligini asoslab bergan.

Iqtisod fanlari doktori G. Sattorovanning ilmiy maqolalari (2020–2023 yillar)da barqaror rivojlanish kontekstida xususiy sektorning ekologik transformatsiyasiga alohida e'tibor qaratilgan. U ekologik tadbirkorlikning rivojlanishi uchun infratuzilma va huquqiy asosning zarurligini ta'kidlab, davlat – tadbirkorlik hamkorligining zamonaviy shakllarini taklif qiladi.

Shuningdek, Sh. Jo'raev va S. Tursunov (2022) o'zlarining maqolalarida kichik biznesning ekologik innovatsiyalarni o'zlashtirishdagi muammolari va imkoniyatlarini tahlil qilgan. Ular, ayniqsa, hududiy iqtisodiy sharoitlar va ekologik salohiyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikka e'tibor qaratadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019-yil 4-oktabrda qabul qilingan "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi to'g'risida"gi PQ-4477-sonli qaror mazkur mavzuning asosiy huquqiy poydevorini tashkil etadi. Unda 2030-yilgacha yashil iqtisodiyotga bosqichma-bosqich o'tish, kichik biznes subyektlari uchun imtiyozli shartlar yaratish, "yashil" texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari belgilangan.

"Yashil energiya" dasturi, "Ekologik audit to'g'risida"gi qonun, "Atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonun va boshqa normativ hujjatlar ham kichik biznesning ekologik yo'nalishda rivojlanishini rag'batlantirishga qaratilgan mexanizmlarni o'z ichiga oladi.

Shuningdek, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan strategik hisobotlar mavzuga oid dolzarb statistik ma'lumotlar va prognozlarni taqdim etadi.

O'zbekiston ilmiy hamjamiyatida yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish va ekologik tadbirkorlik masalalari bo'yicha e'tiborga molik ilmiy ishlar yaratilgan. Ayniqsa, so'nggi yillarda bu mavzular iqtisodiy, huquqiy, sotsiologik va ekologik nuqtai nazardan keng ko'rib chiqilmoqda. Biroq, kichik biznes va davlat siyosati o'rtasidagi o'zaro ta'sir, ekologik innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlari, hamda real sektorning bu jarayonda tutgan o'rnini bo'yicha chuqur va sohashtirilgan tadqiqotlarga ehtiyoj mavjud.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotning metodologik asoslari mavzuning murakkab, tarmoqli va zamonaviy iqtisodiy, ekologik hamda ijtimoiy jarayonlar bilan bevosita bog'liqligidan kelib chiqib belgilandi. Yashil iqtisodiyot sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda davlatning o'rnini va vazifalarini aniqlash ko'p qirrali yondashuvni talab qiladi. Shu sababli tadqiqotda nazariy, empirik, tahliliy va statistik metodlarning uyg'un holda qo'llanilishi asosiy prinsip etib olindi. Tadqiqotning nazariy asoslarini quyidagi fundamental yondashuvlar tashkil etdi: [3]

- Barqaror rivojlanish nazariyasi – iqtisodiy o'sish, ekologik muvozanat va ijtimoiy adolat o'rtasidagi integratsiyani ta'minlashga yo'naltirilgan ilmiy konsepsiyalar asosida mavzuning ideologik zaminini belgiladi.

- Yashil iqtisodiyot konsepsiyasi – iqtisodiy faoliyatda ekologik samaradorlik, resurs tejamkorligi va past uglerodli texnologiyalarga asoslangan yondashuvlar tahlil qilindi.

- Davlatning iqtisodiyotdagi roli nazariyasi – davlatning tartibga soluvchi, qo'llab-quvvatlovchi, rag'batlantiruvchi va monitoring olib boruvchi funksiyalari tahlil etildi.

- Tadbirkorlik va innovatsion rivojlanish nazariyalari – kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining transformatsion va moslashuvchan xususiyatlarini o'rganishda foydalanildi.

Nazariy asoslar sifatida ekologik iqtisodiyot, institutsional iqtisodiyot, innovatsion iqtisodiyot va davlat boshqaruvi sohasidagi yetakchi ilmiy asarlar, monografiyalar, maqolalar va xalqaro hisobotlar o'rganildi. Tadqiqotda qo'llanilgan ilmiy metodlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Tahliliy (analitik) metod – mavjud qonunchilik hujjatlari, strategik dasturlar, ilmiy-texnik hisobotlar va nazariy manbalar asosida asosiy muammolar va imkoniyatlar tahlil qilindi.

- Solishtirma (komparativ) metod – O'zbekistonning yashil iqtisodiyotga o'tish jarayoni boshqa mamlakatlar tajribasi (masalan, Germaniya, Xitoy, Janubiy Koreya, Daniya) bilan qiyoslab tahlil qilindi.

- Empirik metod – kichik biznes vakillari faoliyatidagi real amaliy holatlar, ekologik loyihalarning amalga oshirilish jarayoni, davlat tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar holati tahlil qilindi.

- Statistik metod – Davlat statistika qo'mitasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi ma'lumotlari asosida vaqtli qatorlar, dinamik tahlil, grafik ko'rinishlar, foizli o'zgarishlar asosida baholashlar amalga oshirildi.

- Modellashirish elementi – davlat tomonidan ko'rsatilayotgan qo'llab-quvvatlashning kichik biznes rivojiga ta'sir darajasi soddalashtirilgan konseptual model orqali tahlil qilindi.

- Tavsiyaviy (deskriptiv) metod – mavjud holatlarni aniq va asosli tarzda bayon qilish, tizimlashtirish va ilmiy ifodalash vositasi sifatida xizmat qildi.



Tadqiqotda foydalanilgan axborot manbalari bir nechta guruhlarga ajratildi:

- Statistik axborotlar: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, Jahon banki, UNDP, OECD, UNEP va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan taqdim etilgan so'nggi ma'lumotlar.

- Ilmiy adabiyotlar: mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan yozilgan maqolalar, dissertatsiyalar, ilmiy risolalar, xalqaro ilmiy jurnallardagi tadqiqotlar.

- Internet-resurslar: rasmiy veb-saytlar, davlat tashkilotlarining elektron bazalari, elektron nashrlar va ochiq ma'lumotlar portallari.

Tadqiqot obyekti va predmeti sifatida quyidagilar olindi:

- Tadqiqot obyekti: Yashil iqtisodiyot sharoitida O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari.

- Tadqiqot predmeti: Kichik biznesni yashil yo'nalishga transformatsiya qilish jarayonida davlat siyosatining shakllanishi, amaliyoti va samaradorligi.

Tadqiqotda qo'llanilgan metodologik yondashuv mavzuga chuqur, tizimli va kompleks tarzda yondashish imkonini berdi. Ko'p manbali, ko'p darajali va ko'p metodli yondashuv ilmiy asoslangan xulosalar va takliflarni ishlab chiqishga zamin yaratdi. Shuningdek, tadqiqot natijalari amaliy jihatdan davlat siyosatini takomillashtirish, kichik biznes subyektlarini ekologik innovatsiyalarga jalb qilish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda foydali bo'lishi mumkin.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasi so'nggi yillarda ekologik barqarorlik va resurslardan oqilona foydalanish masalalariga alohida e'tibor qaratib, "yashil iqtisodiyot" konsepsiyasini milliy rivojlanish strategiyasining ustuvor yo'nalishiga aylantirdi. Ayniqsa, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari bu jarayonda hal qiluvchi ahamiyatga ega, chunki ular texnologik moslashuvchan, innovatsion g'oyalarga ochiq va ko'p hollarda ekologik yangiliklarni amaliyotga tez tatbiq qila oladilar. [4]

Quyidagi 1-jadvalda O'zbekistonda 2020–2024-yillarda ekologik yo'nalishga ega kichik biznes loyihalari soni va ularning ulushi keltirilgan:

1-jadval. 2021–2024-yillarda ekologik yo'nalishdagi kichik biznes loyihalari (O'zbekiston Respublikasi bo'yicha).

Yil	Ekologik yo'nalishdagi kichik biznes loyihalari soni	Kichik biznes umumiy loyihalaridagi ulushi (%)
2021	1 125	3,2%
2022	1 745	4,8%
2023	2 318	6,5%
2024	3 460	9,3%

Ko'rinib turibdiki, ekologik loyihalarning soni va ulushi yildan-yilga oshib bormoqda. Bu holat, davlat siyosatida yashil iqtisodiyotga o'tish bo'yicha e'tibor kuchaygani va kichik biznesning bu jarayonda faol ishtirok etayotganini ko'rsatadi.

Ekologik yo'nalishda kichik biznesni rivojlantirishda davlatning eng muhim funksiyalaridan biri bu – moliyaviy rag'batlantirish va imtiyozli kreditlar ajratishdir. Quyidagi 2-jadvalda ekologik loyihalar uchun kichik biznes subyektlariga ajratilgan davlat kreditlari hajmi ko'rsatilgan: [5]

2-jadval. 2021–2024-yillarda ekologik loyihalar uchun ajratilgan imtiyozli kreditlar.

Yil	Ajratilgan kreditlar hajmi (mlrd so'm)	O'sish sur'ati (%)
2021	180	–
2022	295	+63,8%
2023	470	+59,3%
2024	720	+53,2%

Kredit hajmining o'sib borayotgani – hukumatning ekologik innovatsiyalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashga intilayotganini tasdiqlaydi. Ayniqsa, qayta tiklanuvchi energiya, chiqindilarni qayta ishlash, bioorganik o'g'it ishlab chiqarish kabi yo'nalishlarda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlar ustuvorlikka ega. Quyidagi 3-jadvalda 2024-yil yakuni bo'yicha ayrim hududlarda ekologik yo'nalishdagi kichik biznes subyektlari soni ko'rsatilgan: [6]



3-jadval. Hududlar bo'yicha ekologik yo'nalishdagi kichik biznes (2024-yil yakuni).

Hudud	Loyihalar soni	Ulushi (%)
Toshkent shahri	820	23,7%
Farg'ona viloyati	510	14,8%
Qashqadaryo	365	10,6%
Samarqand	420	12,1%
Buxoro	310	9,0%
Qoraqalpog'iston	290	8,4%
Boshqa viloyatlar	860	21,4%
Jami	3 575	100%

Bu tahlildan ko'rinadiki, ekologik tadbirkorlik asosan iqtisodiy rivojlangan, infratuzilmasi yaxshi yo'lga qo'yilgan hududlarda faollik bilan amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, Toshkent shahri va Farg'ona vodiysi viloyatlari bu borada yetakchi o'rinda turibdi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy tizimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o'rni tobora muhimlashib bormoqda. Xususan, yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari yuksak ekologik samaradorlikka ega bo'lgan innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishda muhim rol o'ynaydi. Tadqiqot davomida quyidagi asosiy xulosalarga erishildi:

Birinchidan, O'zbekiston hukumati tomonidan ishlab chiqilgan ekologik siyosatlar va strategiyalar kichik biznesning ekologik yo'nalishda rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida kichik biznes subyektlarining o'z faoliyatini ekologik jihatdan samarali tashkil etishlariga hukumat tomonidan yaratilgan iqtisodiy va moliyaviy shart-sharoitlar katta yordam bermoqda.

Ikkinchidan, kichik biznesni rivojlantirishda davlat tomonidan ajratiladigan imtiyozli kreditlar, subyektlar uchun qulay soliq siyosati va ekotexnologiyalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash kabi mexanizmlar muhim ahamiyat kasb etadi. Tahlil qilish natijasida, bu dasturlarning samarali ishlashi kichik biznes subyektlarining ekologik yo'nalishda faoliyat yuritish imkoniyatlarini sezilarli darajada oshirganligi aniqlangan.

Uchunchidan, hududlar bo'yicha ekologik yo'nalishdagi kichik biznesning rivojlanishi teng ravishda amalga oshirilmayapti. Ayniqsa, ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlar nuqtai nazaridan Toshkent shahri va Farg'ona viloyati kabi hududlar ekologik tadbirkorlikda yetakchi o'rinda turibdi. Boshqa hududlarda esa, iqtisodiy rivojlanish va infratuzilma jihatidan bu boradagi faoliyatni yanada rag'batlantirish zarur.

To'rtinchidan, kichik biznes subyektlarining ekologik texnologiyalarni joriy etishdagi muammolari davom etmoqda. Texnologik yangiliklarning qimmatligi, ishlab chiqarish jarayonlarining yuqori narxi va mutaxassislarning yetishmasligi ekologik biznesning kengayishiga ta'sir qilmoqda.

Beshinchidan, kichik biznesning ekologik yo'nalishga o'tishi faqat iqtisodiy foyda olish bilan cheklanib qolmasligi kerak. Ular, shuningdek, atrof-muhitni muhofaza qilish, ijtimoiy mas'uliyatni o'z zimmasiga olish va barqaror rivojlanish prinsiplariga amal qilishlari lozim. Bu jarayonni davlat tomonidan samarali nazorat qilish va rag'batlantirish zarur.

Yashil iqtisodiyotga o'tishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning faol ishtirokini ta'minlash uchun quyidagi takliflar beriladi:

Birinchi taklif kichik biznes subyektlariga ekologik loyihalarni amalga oshirishda qulay moliyaviy shartlar yaratish zarur. Imtiyozli kreditlar, soliq imtiyozlari va boshqa moliyaviy yordamlar ko'lamini kengaytirish, ayniqsa, ekologik texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etishga qaratilgan tadbirkorlar uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi.

Ikkinchi taklif kichik biznes sohasidagi tadbirkorlarga ekologik ta'lim berish, ularga ekologik biznesni tashkil etishning amaliy jihatlarini o'rgatish uchun maxsus kurslar va treninglar tashkil etilishi lozim. Shu bilan birga, ekologik sertifikatlash tizimini yanada oddiylashtirish va kengaytirish, tadbirkorlarning ekologik mahsulotlar va xizmatlarga bo'lgan talabni oshiradi.

Uchunchi taklif hududiy farqlarni hisobga olib, har bir viloyat va tuman uchun alohida ekologik tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari ishlab chiqilishi kerak. Har bir hududda ekologik resurslardan samarali foydalanish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini kengaytirish, chiqindilarni qayta ishlash va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bo'yicha aniq maqsadlar belgilanishi lozim.

To'rtinchi taklif ekologik texnologiyalarni kichik biznes subyektlariga tadbiq etish uchun zarur infratuzilma yaratish kerak. Yashil energiya tizimlari, ekologik qurilish materiallari va boshqa innovatsion texnologiyalarni



ishlab chiqish va ularga texnik qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish, kichik biznesni ekologik sohalarga jalb qilishni osonlashtiradi.

Beshinchi taklif kichik biznes va davlat o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish uchun ularni birlashtiruvchi mexanizmlar ishlab chiqish zarur. Davlat va xususiy sektor o'rtasida samarali hamkorlik, ayniqsa, ekologik loyihalarda innovatsion g'oyalar va investitsiyalarni birlashtirishga yordam beradi. Davlat tomonidan kichik biznesni qo'llab-quvvatlash uchun ilg'or tajribalarni o'rganish va tadbirkorlar uchun rag'batlantiruvchi mexanizmlar yaratish kerak.

Oltinchi taklif kichik biznes subyektlari ekologik innovatsiyalarni amalga oshirishda ba'zi byurokratik to'siqlarga duch kelmoqda. Bu holatni bartaraf etish uchun ekologik texnologiyalarni joriy etish jarayonidagi huquqiy va normativ-huquqiy to'siqlarni kamaytirish, davlat organlari tomonidan ular uchun qulay va aniq yo'riqnomalar ishlab chiqilishi kerak.

Yettinchi taklif O'zbekiston Respublikasining barqaror rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishda ekologik masalalar ko'proq yoritilishi kerak. Kichik biznesning yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonidagi ishtirokini ta'minlash uchun bu strategiyada aniq ko'rsatmalar va mas'uliyatlarni belgilash zarur.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ekologik yo'nalishdagi loyihalarda faol ishtirok etishlari uchun davlat tomonidan ko'rsatilgan yordam va imtiyozlar samarali ishlamoqda. Biroq, mazkur sohadagi rivojlanishning yanada tezlashishi uchun ko'proq kompleks yondashuv, moliyaviy va texnologik qo'llab-quvvatlash zarur. Shuningdek, hududiy va sektoral o'zgarishlarni hisobga olgan holda, davlat va xususiy sektor o'rtasida samarali hamkorlik va ekologik innovatsiyalarni amalga oshirish bo'yicha aniq strategiyalar ishlab chiqilishi lozim. Ushbu takliflar amalga oshirilsa, O'zbekistonning yashil iqtisodiyotga o'tish jarayoni kichik biznes va tadbirkorlik sohasidagi yangi imkoniyatlarni yaratib, ekologik barqarorlikni ta'minlashga katta hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Vahobov, A. (2021). Yashil iqtisodiyot: nazariy asoslari va milliy model. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi.
2. Sattorova, G. (2020). Barqaror rivojlanish: ekologik tadbirkorlikning yangi yo'nalishlari. Toshkent: Iqtisodiyot va tadbirkorlik instituti.
3. Jo'raev, Sh., & Tursunov, S. (2022). Kichik biznesning ekologik innovatsiyalarni joriy etishdagi o'rni. Iqtisodiyot va ekologiya jurnali, 13(5), 47–59.
4. Qodirov, F. (2022). Barqaror rivojlanish strategiyasida xususiy tadbirkorlik subyektlarining ekologik yo'nalishda rivojlanishi. Toshkent: O'zbekiston milliy universiteti.
5. Nurmatova, T. (2021). Yashil iqtisodiyot sharoitida kichik biznes faoliyatining ekologik samaradorligini oshirish yo'llari. PhD dissertatsiyasi. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti.
6. Xusainov, A. (2022). Atrof-muhitni muhofaza qilish va iqtisodiyotni rivojlantirish: davlat siyosati va kichik biznes. Toshkent: Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish vazirligi.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>